



Oliy ta'lif, fan va innovatsiyalar vazirining  
2025-yil "13"-maydagi 155 buyruqiga  
2-ilov

## **Oliy ta'lif tashkilotlarida korrupsiyaga qarshi kurashishga qaratilgan "Eng yaxshi esselar" respublika tanlovini tashkil etish va o'tkazish tartibi to'g'risida NIZOM**

### **I. Umumiy qoidalar**

1. Mazkur nizom oliy ta'lif tashkilotlarining bakalavriat ta'lif bosqichi talabalari o'rtasida korrupsiyaga qarshi kurashishga qaratilgan "Eng yaxshi esselar" respublika tanlovini (*keyingi o'rinnarda – tanlov deb yuritiladi*) tashkil etish va o'tkazish tartibini belgilaydi.

2. Nizom oliy ta'lif tashkilotlarida korruption holatlarning oldini olish, talabalarning bilim va ko'nikmalarini yanada oshirish hamda tanlov yuzasidan ularni pul mukofotlari bilan rag'batlantirish bo'yicha zarur chora-tadbirlarni tartibga soladi.

### **II. Tanlovning maqsad va vazifalari**

3. **Tanlovning asosiy maqsadi** – talaba-yoshlarning korrupsiya holatlariga qarshi bilim va malakalarini oshirish hamda oliy ta'lif tashkilotlarida korruption holatlarga qarshi kurashishdan iborat.

#### **4. Tanlov vazifalari quyidagilardan iborat:**

yoshlar o'rtasida ijtimoiy-ma'naviy muhit barqarorligini ta'minlash;  
talaba-yoshlarni turli korruption holatlarga aralashib qolishining oldini olish;  
oliy ta'lif tashkilotlarida korruption holatlarni oldini olish;  
talabalarga o'z iqtidorlarini namoyon etishlari uchun shart-sharoitlar yaratish  
hamda mustaqil va erkin fikrga ega iste'dodli talabalarni har tomonlama  
qo'llab-quvvatlash;  
tanlov bo'yicha talabalarning ijodiy ishlarini keng jamoatchilikka yetkazish;  
yosh avlodni har tomonlama yetuk, yuksak ma'naviyatli, intellektual  
salohiyatli, Vataniga sadoqatli komil inson qilib tarbiyalash.

### **III. Tanlovnin o'tkazish bosqichi va muddatlari**

5. Korrupsiyaga qarshi kurashishga qaratilgan "Eng yaxshi esselar" respublika tanlovi bakalavriat ta'lif bosqichi talabalari o'rtasida quyidagi uch

bosqichda (*oliy ta’lim tashkiloti, hududiy (yoki mintaqaviy) saralash va respublika*) tashkil etiladi:

**a) olivy ta’lim tashkiloti bosqichi** – olivy ta’lim tashkilotida tanlovda ishtirok etish istagini bildirgan talabalar o’rtasida nizomda belgilangan mavzu asosida joriy yilning **15-17-may** kunlari tashkil etiladi va Hakamlar hay’ati tomonidan baholanadi;

**b) hududiy (yoki mintaqaviy) saralash bosqichi** – olivy ta’lim tashkiloti bosqichida faqat 1-o‘rinni egallagan talabalar o’rtasida nizomda belgilangan mavzu asosida joriy yilning **19-20-may** kunlari tashkil etiladi;

**d) respublika final bosqichi** – tanlovning hududiy (yoki mintaqaviy) saralash bosqichida talabalar tomonidan yozilgan ijodiy ishlar o’rtasida joriy yilning **22-24-may** kunlari tashkil etiladi va Hakamlar hay’ati tomonidan baholanadi.

#### **IV. Tanlovnvi tashkil etish va o‘tkazish tartibi**

6. Tanlov Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Talaba va o‘quvchilarning ijtimoiy faolligini oshirish markazi (keyingi o‘rinlarda – Tashkilotchi deb yuritiladi) tomonidan tashkil etiladi.

7. Tanlovnvi yuqori saviyada tashkil etish va o‘tkazish uchun olivy ta’lim tashkiloti bosqichida ishchi guruhlari hamda respublika bosqichida Respublika tashkiliy qo‘mitasi mas’ul hisoblanadi. Shuningdek, ishtirokchilarning ijodiy ishlarini shaffof va adolatli baholash maqsadida soha mutaxassislari va professor-o‘qituvchilardan iborat Hakamlar hay’ati tarkibi shakllantiriladi.

8. Tanlovning olivy ta’lim tashkiloti bosqichi tanlovda ishtirok etish istagini bildirgan talabalar uchun tashkil etilib, ishchi guruhi tomonidan talabalarga **“Yoshlar korrupsiyaga yo‘q deydi!”** mavzusida esse yozish topshiriladi va baholanadi.

9. Oliy ta’lim tashkiloti bosqichida 1-o‘rinni egallagan ishtirokchi tanlov o‘tkazilganligi to‘g‘risidagi bayonnomma hamda pasporti (nusxasi)ni taqdim etganidan keyin tanlovning hududiy (yoki mintaqaviy) saralash bosqichida ishtirok etadi. Ishtirokchilarga **“Korrupsiya – taraqqiyotga tahdid”** mavzusida esse yozish topshiriladi.

10. Tanlovning hududiy (yoki mintaqaviy) saralash bosqichi bo‘lib o‘tadigan manzili vazirlikning rasmiy xati orqali oliy ta’lim tashkilotlariga ma’lum qilinadi hamda Qoraqalpog‘iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahrida belgilangan joylarda bo‘lib o‘tadi.

Ishtirokchi talabalar tomonidan yozilgan esse daftarlari (*ijodiy ish yozilgan 12 varaqli daftar ustiga oliy ta’lim tashkiloti nomi talabaning ism-familiyasi*

*va kursi to‘liq yoziladi)* tashkilotchi tomonidan biriktirilgan mas’ul ishtirokida yozilgan esselar yig‘ib olinadi va respublika bosqichiga taqdim etiladi.

11. Tanlovning respublika bosqichida Hakamlar hay’ati tarkibi tuziladi va saralashda ishtirok etgan ishtirokchi talabalar yozgan esselar Hakamlar hay’ati tomonidan tekshirilib baholanadi hamda ballar ketma-ketligida g‘oliblar aniqlanadi.

12. Hakamlar hay’ati tomonidan qabul qilingan qarorni muhokama etishga yo‘l qo‘yilmaydi.

13. Esse yozish uchun tanlovning barcha bosqichlarida ikki yarim soatgacha vaqt ajratiladi.

14. Respublika bosqichida ishtirok etgan ishtirokchilarning yozgan esselari 6 oy davomida saqlanadi.

## **V. Tanlovning shartlari va baholash mezonlari**

15. Tanlov ishtirokchilari bakalavriat ta’lim yo‘nalishi talabalari bo‘lishi kerak.

16. Tanlovda ishtirokchilar o‘zbek, qoraqalpoq va rus tillarida (*12 varaqli muhrlangan daftarga*) esse yozishlari mumkin.

17. Esselar quyidagi mezonlar asosida baholanadi:  
mavzuning to‘laqonli ochib berilganligi – 25 ball;  
mavzuga oid mavjud muammolar va ularning yechimi bo‘yicha takliflar – 25 ball;

imloviy savodxonligi, so‘z boyligi va uslubiy mahorati – 25 ball;  
amalga oshirilayotgan islohotlarga nisbatan shaxsiy munosabatning va ular bo‘yicha xulosaviy fikrlarning mavjudligi hamda ularni ifoda etish mahorati – 25 ball;

18. Esselar Hakamlar hay’ati tomonidan tekshiriladi va 100 ballgacha baholanadi.

## **VI. Tanlov g‘oliblarini taqdirlash**

19. Tanlovning oliy ta’lim tashkiloti bosqichida 1-, 2-, 3-o‘rinnlarni egallagan ishtirokchilar oliy ta’lim tashkiloti rahbari tomonidan faxriy yorliq va esdalik sovg‘alar bilan taqdirlanadi.

20. Tanlovning respublika bosqichida eng yuqori ball to‘plib, 1-, 2-, 3-o‘rinnlarni egallagan ishtirokchilar Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi tomonidan vazirlikning Oliy ta’lim muassasalarini rivojlantirish jamg‘armasi mablag‘lari hisobidan (daromad solig‘i bilan qo‘sib hisoblangan) quyidagi tartibda:

**1-o‘rin** – 6 000 000 so‘m;

**2-o‘rin** – 5 000 000 so‘m;

**3-o‘rin** – 4 000 000 so‘m pul mukofotlari, diplom, statuetka va gullar bilan taqdirlanadi.

21. Tanlov g‘oliblari soni (*har bir o‘rin bo‘yicha*) 2 va undan ortiq bo‘lganda pul mukofotlari g‘oliblar o‘rtasida teng taqsimlanadi.

22. Tanlovning respublika bosqichiga kelib tushgan barcha ijodiy ishlarning mualliflariga Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi tomonidan elektron sertifikat beriladi.

### **VIII. Yakuniy qoidalar**

23. Tanlov natijalari ijtimoiy tarmoqlarda va rasmiy veb-saytlarda e’lon qilib boriladi.

24. Tanlov natijalaridan norozi bo‘lgan ishtirokchilar Respublika tashkiliy qo‘mitasiga belgilangan tartibda murojaat qilish huquqiga ega.

25. Respublika tashkiliy qo‘mitasi qaroriga asosan tanlov nizomiga o‘zgartirish va qo‘srimchalar kiritilishi mumkin.

26. Ishtirokchilarning tanlov bilan bog‘liq (kelib-ketishi, ovqatlanishi va boshqa) xarajatlari oliy ta’lim tashkilotining budgetdan tashqari mablag‘lari hisobidan qoplanadi.

27. Tanlovning barcha bosqichlarida xizmat safari bilan bog‘liq sarf-xarajatlar xodimning asosiy ish joyidan qoplanadi.